



DEONTOLOGIK KOMPETENTLIGINI MASTER ADAPTIVE LEARNING TEXNOLOGIYASI ORQALI RIVOJLANTIRISH METODIKASI

G'aniyev Muhammadamin Avazbek o'g'li

Annotatsiya: Mazkur maqolada bo'lajak mutaxassislarning deontologik kompetentligini rivojlantirishda Master Adaptive Learning texnologiyasidan foydalanishning metodik imkoniyatlari yoritilgan. Deontologik kompetentlik kasbiy faoliyat jarayonida axloqiy me'yorlar, kasbiy burch, mas'uliyat, kommunikativ madaniyat hamda professional xulq-atvor talablariga rioya qilish qobiliyatining majmuasi sifatida talqin etiladi. Tadqiqotda Master Adaptive Learning texnologiyasining ta'lim oluvchining individual bilim darajasi, ehtiyoji, qobiliyati va o'zlashtirish sur'atiga moslashish imkoniyatlari asosida deontologik kompetensiyalarni shakllantirish metodikasi taklif etiladi.

Kalit so'zlar: deontologik kompetentlik, Master Adaptive Learning, adaptiv ta'lim, individual ta'lim trayektoriyasi, kasbiy kompetensiya, kasbiy etika.

Аннотация: В данной статье освещаются методические возможности использования технологии Master Adaptive Learning в развитии деонтологической компетентности будущих специалистов. Деонтологическая компетентность рассматривается как совокупность способностей соблюдать нравственные нормы, профессиональный долг, ответственность, коммуникативную культуру и требования профессионального поведения в процессе профессиональной деятельности. В исследовании предлагается методика формирования деонтологических компетенций на основе возможностей технологии Master Adaptive Learning адаптироваться к индивидуальному уровню знаний, потребностям, способностям и темпу усвоения учебного материала обучающегося.

Ключевые слова: деонтологическая компетентность, Master Adaptive Learning, адаптивное обучение, индивидуальная образовательная траектория, профессиональная компетентность, профессиональная этика.

Abstract: This article examines the methodological potential of using Master Adaptive Learning technology to develop the deontological competence of future specialists. Deontological competence is considered as a set of abilities to comply with ethical norms, professional duty, responsibility, communicative culture, and professional behavior requirements in the course of professional activity. The study proposes a methodology for developing deontological



competencies based on the ability of Master Adaptive Learning technology to adapt to the learner's individual level of knowledge, needs, abilities, and pace of learning.

Key words: deontological competence, Master Adaptive Learning, adaptive learning, individual learning trajectory, professional competence, professional ethics.

Bugungi kunda oliy ta'lim tizimida raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi ta'lim jarayonini tashkil etishning an'anaviy yondashuvlarini qayta ko'rib chiqishni talab qilmoqda. Ayniqsa, bo'lajak tibbiyot mutaxassislarini tayyorlashda faqat nazariy bilim va amaliy ko'nikmalarni shakllantirish yetarli emas. Zamonaviy shifokor bemor bilan samarali muloqot qila olishi, uning huquq va manfaatlarini hurmat qilishi, kasbiy sirni saqlashi, murakkab vaziyatlarda axloqiy jihatdan to'g'ri qaror qabul qilishi hamda o'z kasbiy faoliyati uchun mas'uliyatni his qilishi zarur. Shu sababli tibbiy ta'limda deontologik kompetentlikni rivojlantirish muhim pedagogik vazifalardan biri hisoblanadi.

Deontologik kompetentlik mutaxassisning kasbiy burch, axloqiy me'yorlar, professional mas'uliyat va insonparvarlik tamoyillariga asoslangan holda faoliyat yuritish qobiliyatini ifodalaydi. Tibbiyotda bu kompetentlik bemor bilan munosabat, shifokor va hamkasblar o'rtasidagi muloqot, tibbiy ma'lumotlarning maxfiyligi, bemorning tanlovini hurmat qilish hamda kasbiy vazifalarni vijdonan bajarish kabi jihatlarda namoyon bo'ladi. Tibbiy etika bo'yicha tadqiqotlarda ham professional faoliyatning axloqiy jihatlari shifokor tayyorgarligining ajralmas qismi sifatida qaraladi [1].

Ta'lim jarayonida har bir talabaning bilim darajasi, o'zlashtirish sur'ati, individual ehtiyoji va mavjud kompetensiyalari bir-biridan farq qiladi. Shu nuqtayi nazardan, barcha talabalar uchun bir xil mazmundagi va bir xil murakkablikdagi topshiriqlarni taqdim etish har doim ham kutilgan pedagogik natijani bermaydi. Personalizatsiyalashgan va adaptiv ta'lim texnologiyalari esa talabaning individual xususiyatlarini hisobga olish hamda uning rivojlanish trayektoriyasini moslashtirish imkonini beradi [2]. Master Adaptive Learner (MAL) texnologiyasi ana shunday zamonaviy yondashuvlardan biri bo'lib, unda ta'lim oluvchining o'z bilim va ko'nikmalarini baholashi, mavjud kamchiliklarini aniqlashi, mustaqil ravishda bilimlarini takomillashtirishi va o'z faoliyati natijalarini qayta baholashi muhim o'rin tutadi. Mazkur yondashuv adaptiv ta'limning individual rivojlanishga yo'naltirilgan imkoniyatlari bilan uyg'unlashganda talabaning nafaqat bilimini, balki refleksiv va kasbiy



kompetensiyalarini ham rivojlantirishga xizmat qiladi. Adaptiv ta'lim tizimlari talabaning natijalarini muntazam tahlil qilib, keyingi o'quv faoliyatini uning ehtiyojlariga moslashtirish imkonini beradi [3].

Shu jihatdan, Master Adaptive Learning texnologiyasini deontologik kompetentlikni rivojlantirish jarayoniga tatbiq etish dolzarb ilmiy-pedagogik masala hisoblanadi. Chunki kasbiy-axloqiy vaziyatlarning murakkabligi barcha talabalar uchun bir xil emas. Ayrim talabalar bemor bilan kommunikatsiya qilishda qiyinchilikka duch kelsa, boshqalari maxfiylik, kasbiy mas'uliyat yoki axloqiy tanlov bilan bog'liq vaziyatlarda muammoga duch kelishi mumkin.

Deontologik kompetentlik bo'lajak tibbiyot mutaxassisining kasbiy faoliyatida muhim o'rin tutadi. Chunki shifokorning faoliyati faqat bemorga tashxis qo'yish yoki davolash usullarini bilish bilan cheklanmaydi. Bemor bilan qanday gaplashish, uning fikrini tinglash, shaxsiy ma'lumotlarini sir saqlash, murakkab vaziyatlarda to'g'ri qaror qabul qilish ham shifokorning kasbiy tayyorgarligini belgilaydigan jihatlardandir. Shu sababli tibbiyot oliy ta'limida talabalarga deontologik bilimlarni berish bilan birga, ularni kundalik kasbiy vaziyatlarda qo'llashga o'rgatish ham muhimdir. Tibbiy ta'limda axloqiy va kasbiy masalalarni amaliy vaziyatlar orqali o'rgatish talabaning mustaqil fikrlashi va qaror qabul qilish qobiliyatini rivojlantirishga xizmat qiladi [1].

Deontologik kompetentlikni shakllantirish jarayonida talabaning individual imkoniyatlarini hisobga olish masalasiga alohida e'tibor qaratish lozim. Bir guruhda tahsil olayotgan talabalar bilim darajasi, o'zlashtirish tezligi, amaliy tajribasi va muloqot qilish qobiliyati jihatidan bir xil bo'lmaydi. Masalan, ayrim talabalar tibbiy etika qoidalarini nazariy jihatdan yaxshi bilishi mumkin, lekin bemor bilan yuzma-yuz muloqot qilishda o'zini noqulay his qiladi. Yana bir talaba bemor bilan yaxshi muloqot qilishi mumkin, ammo muayyan axloqiy vaziyatda qanday qaror qabul qilishni bilmasligi ehtimoldan xoli emas. Shuning uchun barcha talabalarni bir xil topshiriqlar asosida o'qitish o'rniga, ularning mavjud bilim va ko'nikmalariga qarab ta'lim mazmunini moslashtirish samaraliroq bo'lishi mumkin [2].

Ana shu jihatdan Master Adaptive Learning texnologiyasidan foydalanish muhim imkoniyatlarni yaratadi. Ushbu yondashuvda talabaning o'z bilimini baholashi, mavjud kamchiliklarini aniqlashi, ularni bartaraf etish uchun mustaqil ravishda ishlashi va keyinchalik o'z natijasini qayta baholashi muhim hisoblanadi. Adaptiv ta'limning mazmuni ham aynan ta'lim jarayonini talabaning individual ehtiyojlariga moslashtirishga asoslanadi [3].

Master Adaptive Learning texnologiyasini deontologik kompetentlikni rivojlantirishga tatbiq etishda, avvalo, talabaning boshlang'ich tayyorgarlik darajasini aniqlash maqsadga muvofiq. Buning uchun oddiy testlardan tashqari, kasbiy vaziyatlarga asoslangan savollardan foydalanish mumkin. Masalan, talabaga quyidagi holat taklif etiladi: bemor o'zining kasalligi haqida qarindoshlariga ma'lumot berilmasligini shifokordan so'radi. Biroq bemorning yaqin qarindoshi shifokordan uning tashxisi haqida ma'lumot berishni talab qilmoqda. Bunday vaziyatda talaba bemorning huquqi, tibbiy sir va shifokorning kasbiy majburiyatlari haqida o'z fikrini bildirishi kerak. Bu topshiriq orqali talabaning faqat nazariy bilimni emas, balki o'z bilimni amaliy vaziyatga tatbiq eta olish qobiliyatini ham aniqlash mumkin. Agar talaba vaziyatni to'g'ri tahlil qila olmasa, unga keyingi bosqichda tibbiy sir va bemor huquqlariga oid qo'shimcha materiallar beriladi. Aksincha, vaziyatni to'g'ri hal qilgan talaba uchun murakkabroq topshiriq tanlanadi. Shunday qilib, bir xil mavzu doirasida talabalar o'z tayyorgarlik darajasiga mos topshiriqlarni bajarish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Deontologik kompetentlikni rivojlantirishda vaziyatli topshiriqlardan foydalanish ayniqsa samarali hisoblanadi. Chunki talaba tayyor qoidani yodlab qolishdan ko'ra, muayyan vaziyatda qanday yo'l tutish kerakligi haqida fikr yuritadi. Masalan, shifokor bemorga uning kasalligi haqida ma'lumot berishi kerak. Bemor esa bu ma'lumotni eshitishdan qo'rqayotganini bildiradi. Talaba bu holatda shifokorning muloqot uslubi qanday bo'lishi kerakligini, bemorning ruhiy holatini qanday hisobga olish mumkinligini va kasbiy burch bilan insoniy munosabat o'rtasidagi muvozanatni qanday saqlash kerakligini tushuntiradi. Bunday mashqlar talabaning kasbiy vaziyatni turli tomondan ko'ra olishiga yordam beradi.

Yana bir muhim masala – bemor bilan muloqot qilish madaniyatidir. Tibbiyot amaliyotida shifokorning birgina noto'g'ri so'zi bemorda salbiy taassurot qoldirishi mumkin. Shuning uchun talabalarni faqat “nima qilish kerak?” degan savolga emas, balki “qanday qilib qilish kerak?” degan savolga ham javob topishga o'rgatish zarur. Masalan, bemor shifokorga o'z shikoyatlarini uzoq vaqt davomida tushuntirayotgan bo'lsa, shifokor uni qo'pol tarzda to'xtatmasligi, suhbatni to'g'ri yo'naltirishi va bemorning fikrini hurmat qilishi kerak. Bunday vaziyatni rolli o'yin orqali tashkil etish talabaning kommunikativ va deontologik ko'nikmalarini bir vaqtda rivojlantirish imkonini beradi. Master Adaptive Learning texnologiyasining yana bir foydali tomoni shundaki, talaba bajargan topshirig'idan keyin o'z faoliyatini qayta ko'rib chiqadi. Masalan, talaba bemor



bilan muloqot jarayonida xatoga yo‘l qo‘ygan bo‘lsa, undan “Qaysi joyda xato qildim?”, “Boshqa qanday yo‘l tutish mumkin edi?”, “Bemor mening gapimni qanday qabul qilgan bo‘lishi mumkin?” kabi savollarga javob berish so‘raladi. Bunday refleksiya talabaning o‘z faoliyatiga tanqidiy qarashiga yordam beradi. Refleksiya professional rivojlanishning muhim vositalaridan biri sifatida qaraladi [4].

Shuningdek, deontologik kompetentlikni shakllantirishda individual ta‘lim trayektoriyasidan foydalanish ham maqsadga muvofiq. Individual ta‘limda talabaning bilim darajasi va ehtiyojlari hisobga olinib, unga mos o‘quv materiallari va topshiriqlar tanlanadi [5]. Masalan, bemor bilan muloqot qilishda qiynalayotgan talabaga kommunikativ vaziyatlar ko‘proq berilishi mumkin. Axloqiy qaror qabul qilishda qiynalayotgan talabaga esa turli deontologik muammolar aks etgan case-topshiriqlar beriladi. Shu tariqa talabaning aynan rivojlantirishga muhtoj bo‘lgan jihatlari bilan maqsadli ishlash imkoniyati paydo bo‘ladi. Umuman olganda, Master Adaptive Learning texnologiyasi asosida deontologik kompetentlikni rivojlantirishda ta‘lim jarayoni faqat ma‘ruza va nazariy tushuntirishlar bilan chegaralanib qolmaydi. Unda diagnostika, individual topshiriqlar, kasbiy vaziyatlar, rolli o‘yinlar, mustaqil fikrlash, o‘z-o‘zini baholash va refleksiya bir-biri bilan bog‘langan holda olib boriladi. Bunday yondashuv talabaning deontologik qoidalarni shunchaki bilib qolishiga emas, balki ularni kelajakdagi kasbiy faoliyatida qo‘llay olishiga zamin yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Beauchamp T. L., Childress J. F. *Principles of Biomedical Ethics*. — 8th ed. Oxford University Press, 2019.
2. Taylor D. L., Yeung M., Bashet A. Z. Personalized and Adaptive Learning. In: *Innovative Learning Environments in STEM Higher Education*. Springer, 2021.
3. Cook D. A., Triola M. M. Virtual patients: a critical literature review and proposed next steps. *Medical Education*, 2009, Vol. 43, No. 4.
4. Schön D. A. *The Reflective Practitioner: How Professionals Think in Action*. — New York: Basic Books, 1983.
5. Knowles M. S. *Self-Directed Learning: A Guide for Learners and Teachers*. — Chicago: Follett Publishing Company, 1975.

